

KORXONA IQTISODIYOTIDA EKOLOGIK BOSHQARUV TIZIMINI JORIY ETISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Qodirov Abduvohid Abdumannof o‘g‘li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchi

E-mail: abduvohidqodirov097@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada korxonada iqtisodiyotida ekologik boshqaruv tizimini joriy etishning o‘ziga xos xususiyatlari, jumladan, korxonaning atrof-muhitga ta‘sirini minimal darajaga tushirishga qaratilgan boshqaruv amaliyotlarini joriy etish jarayonining o‘ziga xos jihatlari yoritib berilgan. Ushbu jarayon korxonaning iqtisodiy faoliyatini ekologik talablarga moslashtirishni o‘z ichiga oladi. Jumladan, korxonada o‘z faoliyatida ekologik normalarga rioya qilish bilan birga iqtisodiy samaradorlikka erishishga harakat qiladi. Shu bilan birga, ekologik boshqaruvni joriy qilish zamonaviy va atrof-muhitga zararsiz texnologiyalarni tatbiq etishni talab qilishi mazkur maqolada o‘z aksini topgan.

Kalit so‘zlar: ekologik boshqaruv tizimi, sanoat korxonalari, integratsiyalashuv jarayoni, ekologik xarajatlar va samaradorlik, doimiy monitoring va tahliliy o‘rganish, raqobatbardoshlik, ekologik sertifikatatsiya, ekologik marketing.

Аннотация

В статье рассмотрены особенности внедрения системы экологического менеджмента в экономике предприятий, в том числе освещены специфические аспекты процесса внедрения управленческих практик, направленных на минимизацию воздействия предприятия на окружающую среду. Этот процесс предполагает адаптацию хозяйственной деятельности предприятия к экологическим требованиям. В частности, в данной статье отражено, что при соблюдении экологических норм в своей деятельности предприятие старается достичь экономической эффективности, в то время как внедрение экологического менеджмента требует внедрения современных и безвредных для окружающей среды технологий.

Ключевые слова: система экологического менеджмента, промышленные предприятия, процесс интеграции, экологические затраты и эффективность, постоянный мониторинг и аналитическое исследование, конкурентоспособность, экологическая сертификация, экологический маркетинг.

Abstract

The article highlights the peculiarities of the implementation of an environmental management system in the economy of enterprises, including the specifics of the process of introducing management practices aimed at minimizing the environmental impact of the enterprise. This process involves adapting the economic activities of the enterprise to environmental requirements. In particular, the enterprise tries to achieve economic efficiency in its activities along with compliance with environmental norms, while the introduction of environmental management requires the adoption of modern and environmentally friendly technologies, as reflected in this article.

Keywords: Environmental Management System, industry enterprises, integration process, environmental costs and efficiency, continuous monitoring and analytical study, competitiveness, environmental certification, environmental marketing.

KIRISH

Bugungi kunda atrof-muhit muhofazasi va barqaror rivojlanish konsepsiyalari jahon iqtisodiyotining ustuvor yoʻnalishlaridan biriga aylanmoqda. Zamonaviy iqtisodiy va sanoat tizimlari faoliyati natijasida tabiiy resurslarning tez sarflanishi, ekologik ifloslanishning ortishi va global iqlim oʻzgarishi kabi muammolar yuzaga kelmoqda. Shu sababli, iqtisodiy rivojlanish va ekologik barqarorlik oʻrtasidagi muvozanatni taʼminlash dolzarb masalaga aylandi.

Iqtisodiyotning turli sohalarida ekologik boshqaruvni joriy etish orqali tabiat resurslaridan samarali foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlarining ekologik xavfsizligini oshirish va ekologik oqibatlarni minimallashtirish mumkin. Bunda ekologik menejment, yashil iqtisodiyot va atrof-muhit standartlariga mos keluvchi innovatsion texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro ISO 14001 standarti va boshqa ekologik meʼyorlar asosida ishlab chiqilgan boshqaruv tizimlari nafaqat atrof-muhit muhofazasini kuchaytirish, balki korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirishga ham xizmat qiladi.

Bugungi kunning eng muhim masalalaridan biri – atrof-muhit muhofazasi va barqaror rivojlanish konsepsiyalarini iqtisodiy jarayonlarga integratsiya qilishdir. Sanoat korxonalari tomonidan tabiatga yetkazilayotgan zararni kamaytirish, resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish va ekologik xavfsizlikni taʼminlash ustuvor vazifalardan biriga aylanmoqda. BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs) doirasida ekologik toza ishlab chiqarish modellarini qoʻllash va ekologik standartlarni joriy etish global iqtisodiyot uchun muhim yoʻnalish sifatida belgilangan.

Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, davlatlar va kompaniyalar ekologik talablarga mos ravishda ish yuritgan holda barqaror rivojlanish va iqtisodiy samaradorlik oʻrtasidagi muvozanatni saqlashi mumkin. Masalan, Yevropa Ittifoqi davlatlari va Yaponiyada ekologik menejment tizimlarini tatbiq etish orqali sanoat chiqindilarini kamaytirish va qayta ishlash samaradorligi oshirilmoqda.

Oʻzbekiston ham iqtisodiyotini ekologik yoʻnalishda takomillashtirish, qayta tiklanadigan energiya manbalarini keng joriy etish, sanoat chiqindilarini qayta ishlash va ekologik standartlarga muvofiq ravishda ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etish boʻyicha jiddiy chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Xususan, mamlakatda "Yashil iqtisodiyot" konsepsiyasi doirasida korxonalarini ekologik sertifikatsiyalash va ekologik innovatsiyalarni ragʻbatlantirish borasida bir qator tashabbuslar amalga oshirilmoqda.

Inson doimiy ravishda oʻz yashash muhiti bilan oʻzaro taʼsirda boʻladi, faqat uning resurslarini isteʼmol qilibgina qolmay, balki tabiat muhitini oʻzgartirib, uni oʻzining amaliy va xoʻjalik vazifalariga moslashtiradi. Bu esa atrof-muhitga sezilarli taʼsir koʻrsatib, oʻzgarishlarga olib keladi. Natijada ushbu oʻzgarishlar insonning oʻziga ham taʼsir qiladi. Shunday qilib, atrof-muhit sifatining yomonlashuvi hamda

yoqilg'i-energetika va mineral resurslarning kamayishi dunyo bo'ylab ko'plab olimlar, siyosatchilar va jamoatchilik e'tiborini sayyoramizning ifloslanish muammosiga jalb qildi [1].

ADABIYOTLAR SHARHI

Ekologik boshqaruv va barqaror rivojlanish masalalari jahon olimlari tomonidan keng o'rganilgan. Jumladan, Maykl Porter o'zining *«Porter gipotezasi»*da ekologik samaradorlik korxonalar raqobatbardoshligini oshirishning muhim omili sifatida qaralishi kerakligini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, ekologik standartlar innovatsiyalar rag'batlantiruvchisi sifatida samaradorlikni oshiradi va iqtisodiy o'sishga hissa qo'shadi [1].

Pol Xokins va Amori Lovins o'z tadqiqotlarida iqtisodiy va ekologik manfaatlar uyg'unligini tahlil qilgan bo'lib, ularning fikricha, resurslarni tejash va ekologik xavfsizlikni oshirish korxonalarining uzoq muddatli iqtisodiy barqarorligini ta'minlaydi [2].

Nikolas Stern o'zining iqlim o'zgarishi bo'yicha tahlillarida ekologik investitsiyalar nafaqat tabiat muhofazasi, balki uzoq muddatli iqtisodiy o'sish uchun zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, iqlim o'zgarishiga qarshi choralar ko'rilmasa, iqtisodiy zarar kuchayib boraveradi [3].

Yozef Shumpeter innovatsiyalar nazariyasi doirasida ekologik texnologiyalarning rivojlanishi yangi iqtisodiy inqiloblarni yuzaga keltirishini qayd etadi. Uning fikriga ko'ra, ekologik menejment korxonalarini samarali boshqarishda muhim o'rin tutadi [4].

Elinor Ostrom resurslarni boshqarish modellari orqali jamoaviy boshqaruv samaradorligini oshirish mumkinligini ta'kidlaydi. Uning tadqiqotlari resurslarni kollektiv ravishda boshqarishda ekologik ustuvorlikni ta'minlash imkoniyatini ko'rsatadi [5].

Jefri Saks barqaror rivojlanish iqtisodiyoti bo'yicha o'z tadqiqotlarida davlat va xususiy sektorning ekologik islohotlardagi roliga urg'u beradi. Uning fikriga ko'ra, ekologik siyosat samarali boshqaruv modellari orqali global miqyosda iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlaydi [6].

1983-yilda BMT tomonidan ekologiya va rivojlanish bo'yicha Jahon komissiyasi tashkil etildi. Ushbu komissiyaning 1987-yilgi hisobotida demografik, oziq-ovqat, energetika, ekologiya, gumanitar, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy omillarni o'z ichiga olgan global ko'p jihatli inqiroz insoniyatning sayyoradagi mavjudligiga tahdid solishi qayd etilgan.

1992-yil iyun oyida Rio-de-Janeyro shahrida BMTning ekologiya va rivojlanish bo'yicha konferensiyasi bo'lib o'tdi. Ushbu konferensiyada 179 ta davlat vakillari tarixiy hujjat – "XXI asr kun tartibi"ni qabul qildilar. Bu hujjat yangi asr uchun o'ziga xos ekologik dastur bo'lib, jahon hamkorligi orqali ikki maqsadga erishishni ko'zda tutadi: yuqori sifatli atrof-muhit va butun dunyo xalqlari uchun sog'lom iqtisodiyot.


Ekologik talablar iqtisodiyot va ijtimoiy taraqqiyot tamoyillarini, davlat tartibga solish va boshqaruv yondashuvlarini o'zgartirmoqda. Zamonaviy ishlab chiqarishda ekologik boshqaruv, avvalo, ekologiya sohasida davlat tomonidan belgilangan majburiy talablarni bajarish va tabiiy resurslardan foydalanishga qaratilgan.

METODOLOGIYA

Korxonalar iqtisodiyotida ekologik boshqaruv tizimini joriy etishning o'ziga xos xususiyatlarini qiyosiy solishtirish, statistik ma'lumotlarni o'rganish, iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Har qanday korxonada, uning ishlab chiqarish ixtisosligi va faoliyat turidan qat'i nazar, o'zi va atrof-muhit o'rtasida turli xil ma'lumotlar, jumladan, energetik va moddiy almashinuvni o'z ichiga oladigan aloqani o'rnatuvchi vositachi sifatida faoliyat yuritadi. Korxonalar iqtisodiy faoliyat natijasida atrof-muhitning ifloslanishida muhim rol o'ynaydi va bunday korxonalarda ekologik boshqaruv nafaqat boshqaruv, balki atrof-muhitni muhofaza qilishni yaxshilashga qaratilgan qarorlar qabul qilish san'ati hisoblanadi (1-rasm).



1-rasm. Korxonalarga zamonaviy ekologik boshqaruv (ZEB) tizimini joriy qilish.[7]

Masalan, korxonalar rahbariyati ekologik boshqaruv tizimini (EBT) joriy etishga qaror qilishi mumkin. Buning uchun hozirgi holatni baholash va uni yaxshilash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish uchun obyektiv, mustaqil, tizimli yondashuvga asoslangan va hujjatlashtirilgan dastlabki ekologik baholashni o'tkazish zarur. Ekologik boshqaruv tizimi korxonaning umumiy boshqaruv tizimiga integratsiya qilinishi kerak. Bunday baholashning maqsadi keyinchalik bazaviy yoki boshlang'ich (nol) ma'lumotlari bilan solishtirish uchun asos yoki boshlanish sifatida foydalaniladigan atrof-muhit holati to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilishdir. Baholash quyidagi jihatlarni tahlil qilishni o'z ichiga oladi: Zarur bo'lgan jarayonlarni amalga oshirish va hujjatlashtirish; Korxonalar faoliyatining qonunchilik va normativ talablarga muvofiqligi; Korxonaning taxmin qilingan ekologik siyosati; Xomashyo va yordamchi materiallardan foydalanish; Atrof-muhitga ta'sir va faoliyatning ekologik jihatlari; Yuqori xavf sohalari va nostandart vaziyatlarga tayyorlik; Korxonaning manfaatdor tomonlar bilan o'zaro hamkorligi va boshqalar. Baholashdan so'ng, korxonaning maqsadlari va tamoyillarini belgilab beruvchi, ekologik maqsad va vazifalarni aniqlash uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi ekologik siyosat hujjati ishlab chiqiladi. Ekologik siyosat korxonalar faoliyatining miqyosi va turiga, shuningdek, uning atrof-muhitga ta'siriga mos kelishi kerak. Ushbu hujjat barcha xodimlarga ma'lum bo'lishi va jamoatchilikka ochiq bo'lishi kerak.

Ekologik siyosatga asoslanib, har qanday korxonalar o'zining ekologik maqsad va vazifalarini aniqlaydi. Ekologik maqsad – bu korxonalar erishmoqchi bo'lgan, atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq umumiy natijadir.

Ekologik vazifa esa ekologik maqsadga erishish uchun bajarilishi lozim bo'lgan aniq talab hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, maqsad – bu muammoni hal qilish yoki mavjud imkoniyatlardan foydalanish natijasida kutilayotgan natija, vazifa esa mazkur muammoni keltirib chiqargan sabablarni bartaraf etish bo'yicha bosqichli ishlardir.

Maqsad va vazifalar iloji boricha aniq raqamlar bilan ifodalangan bo'lishi va manfaatdor tomonlarning fikrini hisobga olgan holda shakllantirilishi kerak.

Ushbu maqsad va vazifalarga erishish uchun korxonalar ekologik boshqaruv dasturini ishlab chiqadi. Bu dasturda mas'ul shaxslar, resurslar va vaqt jadvali aniqlanadi. Korxonalar maqsad va vazifalardagi o'zgarishlarni hisobga olgan holda ushbu dasturni muntazam ravishda yangilab borishi lozim.

Oddiy qilib aytganda, korxonaning ekologik umumiy maqsadi toza havoni saqlash bo'lsa, uning asosiy vazifasi korxonalar faoliyati davomidagi chiqindi gazlar miqdorini kamaytirishdir.

Bundan tashqari, korxonalar o'z faoliyatining atrof-muhitga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan asosiy parametrlarini doimiy ravishda kuzatib borishi kerak. Barcha faoliyat va monitoring natijalari hujjatlashtirilishi lozim. Korxonaning o'zi va tashqi tomon tomonidan amalga oshiriladigan ekologik boshqaruv tizimining doimiy auditori uni ISO 14001 standartida belgilangan mezon va talablarga muvofiqligini tekshirish uchun zarurdir. Ekologik auditori natijalari esa korxonalar rahbariyatiga taqdim etiladi [8].

Rahbariyat ekologik boshqaruv tizimining adekvatligi va samaradorligini baholash maqsadida uni doimiy ravishda qayta ko'rib chiqishi va audit natijalari hamda tashqi sharoitlardagi o'zgarishlarni inobatga olgan holda zarur o'zgartirishlarni kiritib borishi kerak. Bu "reja–amalga oshirish–tekshirish–rejani qayta ko'rib chiqish" degan ochiq boshqaruv sikliga mos keladi. Barcha jarayonlar, ularning natijalari, monitoring ma'lumotlari va boshqalar hujjatlashtirilishi kerak.

ISO 14000 standarti va boshqa normativ hujjatlarga asoslangan ekologik boshqaruvni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Ekologik siyosat va korxonaning ekologik maqsadlarini ishlab chiqish va joriy etish, ularni omma oldida e'lon qilish va namoyish etish, bu ekologik faoliyatni doimiy ravishda yaxshilashga xizmat qiladi. Bu, shuningdek, ekologik vazifalarni asosiy ishlab chiqarish faoliyati bilan integratsiya qilish, baholash va rejalashtirish uchun ko'rsatkichlarni belgilash, shuningdek, ichki miqdoriy va o'ziga xos ko'rsatkichlardan faol foydalanishni o'z ichiga oladi.

Har bir belgilangan maqsad uchun miqdoriy va sifat ko'rsatkichlariga muvofiq bo'lgan aniq ekologik vazifalarni belgilash.

Belgilangan maqsad va vazifalarga muvofiq ekologik faoliyatni rejalashtirish va tashkil etish, jumladan, atrof-muhitga salbiy ta'sirni minimallashtirishga qaratilgan muayyan tadbirlar va harakatlarni ishlab chiqish.

Barcha xodimlarni ekologik faoliyatga jalb qilish va ayniqsa katta xarajatlarni talab qilmaydigan ekologik muammolarni hal qilish uchun barcha mavjud resurslardan foydalanish.

Ekologik faoliyat natijalarini muntazam tahlil qilish va baholash, ekologik siyosat, maqsad va vazifalarni, shuningdek, erishilgan natijalar va mustaqil baholash (ekologik audit) asosida faoliyatni rejalashtirish va tashkil etishni qayta ko'rib chiqish hamda yaxshilash.

Tashqi ekologik faoliyatda faol ishtirok etish va aksiyadorlar, investorlar, sheriklar, iste'molchilar, yetkazib beruvchilar, raqobatchilar, jamoatchilik va mahalliy aholi jumladan, barcha manfaatdor tomonlar bilan konstruktiv munosabatlarni rivojlantirish.

Ijobiy va salbiy natijalarni o'z ichiga oladigan ekologik hisobot tayyorlash va tarqatish.


Ekologik boshqaruv o'z rivojlanishining boshidan boshlab xomashyo xarajatlarini kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni qayta ishlash hisobiga sezilarli iqtisodiy foyda olish, umumiy xarajatlarni kamaytirish va mahsulot sifatini oshirish, ishlab chiqarish hajmlarini ko'paytirish, ishchilarning mehnat unumdorligini oshirish va ish joyidagi xavfsizlikni ta'minlash kabi muammolarni hal qilishda muhim ahamiyatga ega.

Ekologik boshqaruvning asosiy iqtisodiy foydalari va atrof-muhitga salbiy ta'sirni oldini olish quyidagilarni o'z ichiga oladi: Investirlarning e'tiborini jalb qilish va investitsiyalarda imtiyozlarga ega bo'lish. Bozordagi raqobatbardoshlikni oshirish. Ekologik toza mahsulotlarga talab yuqori bo'ladi va bunday mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi korxonalar boshqa korxonalariga nisbatan ustunlikka ega bo'ladi.

Marketing va reklama samaradorligini oshirish. Ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi korxonalar o'z mahsulotlarini boshqa korxonalarga nisbatan samaraliroq reklama qilishlari mumkin. Xalqaro tashkilotlar va jamoatchilikning e'tiborini jalb qilish hamda xalqaro ekologik birlashmalarga a'zo bo'lish. Ekologik jihatdan mas'ul bo'lgan korxonalar xalqaro miqyosda e'tirof etiladi va xalqaro ekologik loyihalarga jalb qilinishi mumkin. Xorijiy biznes sheriklari bilan munosabatlarni rivojlantirish. Ekologik jihatdan mas'ul bo'lgan korxonalar xorijiy korxonalar bilan hamkorlik qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Mahalliy va milliy miqyosda ekologik liderlikka erishish. Ekologik jihatdan mas'ul bo'lgan korxonalar o'z mamlakatida va mintaqada ekologik liderga aylanishi mumkin. Mahalliy hokimiyat organlari, davlat ekologik organlari, aholi va ekologik jamoatchilik bilan munosabatlarni mustahkamlash. Ekologik jihatdan mas'ul bo'lgan korxonalar mahalliy hokimiyat organlari va jamoatchilik bilan yaxshi munosabatlarni o'rnatadilar. Investorlar, aksiyadorlar, mahalliy hokimiyat organlari va davlat ekologik nazorati organlari, aholi, ekologik jamoatchilik bilan munosabatlarda ishonch "qarzini" yaratish va undan foydalanish. Ekologik jihatdan mas'ul bo'lgan korxonalarga investorlar, aksiyadorlar va boshqa manfaatdor tomonlar ko'proq ishonadilar. Xalqaro tovar va moliya bozorlarida o'z pozitsiyasini mustahkamlash va kengaytirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar. Ekologik jihatdan mas'ul bo'lgan korxonalar xalqaro bozorlarga kirish va u yerda muvaffaqiyat qozonish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Korxonaning bozor qiymatini oshirish. Ekologik jihatdan mas'ul bo'lgan korxonalar bozor qiymati yuqori bo'ladi. Jahon amaliyotida ekologik boshqaruv sohasidagi motivatsiya quyidagi imkoniyatlarni o'z ichiga oladi: Ekologik maqsadlarning korxonaning asosiy vazifalariga mos kelishi, ekologik maqsadlar korxonaning umumiy rivojlanishiga xizmat qilishi kerak. Xarajatlar va chiqindilarni kamaytirish, energiya va resurslardan tejamkorlik qilish. Ekologik boshqaruv korxonaning xarajatlarini kamaytirishga va resurslardan samarali foydalanishga yordam beradi. Ichki va tashqi bozorda raqobatbardoshlikni oshirish. Ekologik toza mahsulotlarga bo'lgan talab yuqori bo'ladi va bunday mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi korxonalar boshqa korxonalarga nisbatan ustunlikka ega bo'ladi. Ekologik qonun-qoidalarga rioya qilishni osonlashtirish. Ekologik boshqaruv tizimi korxonaga ekologik qonun-qoidalarga rioya qilishga yordam beradi. Ekologik boshqaruv tizimi yaxshi ishlaganligi tufayli investitsiyalarni jalb qilish. Investorlar ekologik jihatdan mas'ul bo'lgan korxonalarga ko'proq ishonadilar. Mijozlar ekologik jihatdan mas'ul korxonalar mahsulotlariga afzallik berishlari. Mijozlar ekologik toza mahsulotlarni afzal ko'radilar. Aholi va jamoatchilik orasida korxonaning imijini yaxshilash. Ekologik jihatdan mas'ul bo'lgan korxonalar jamoatchilik orasida obro'-e'tiborga ega bo'ladi. Xalqaro bozorlarda tan olinish va muvaffaqiyat qozonish. Ekologik jihatdan mas'ul bo'lgan korxonalar xalqaro bozorlarga kirish va u yerda muvaffaqiyat qozonish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ekologik falokatlar va u bilan bog'liq yo'qotishlarning oldini olish. Ekologik boshqaruv tizimi ekologik falokatlarining oldini olishga yordam beradi. Ekologik boshqaruvning qo'shimcha jihatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: Ekologik jihatdan mas'ul korxonalarga beriladigan imtiyozlar va ustamalar. Ba'zi mamlakatlarda ekologik jihatdan mas'ul

korxonalariga soliq imtiyozlari va boshqa turdagi imtiyozlar beriladi. Ekologik faoliyatdan olingan qo‘shimcha daromad. Ba’zi korxonalar ekologik loyihalarni amalga oshirish orqali qo‘shimcha daromad olishlari mumkin.

Ekologik boshqaruv korxonaning iqtisodiy samaradorligini oshirish va atrof-muhitni muhofaza qilishga yordam beradi. Bunday o‘zgarishlar korxonaning obro‘-e’tiborini oshirib, investorlarning ishonchini orttiradi va bu o‘z navbatida korxonaning aksiyalarining qiymatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa, o‘z navbatida, fond bozorida korxonaning pozitsiyasini mustahkamlashga yordam beradi.



2-rasm. Korxonalar iqtisodiyotida ekologik boshqaruv tizimini joriy etishning o‘ziga xos xususiyatlari.[9]

Korxonalar iqtisodiyotida ekologik boshqaruv tizimini joriy etish quyidagi ijobiy oqibatlarga olib keladi. Jumladan, ichki va xorijiy sheriklar bilan ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirish. Ekologik toza mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar boshqa korxonalar bilan hamkorlik qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Ekologik sertifikat – bu korxonaning mahsulotining sifati va ekologik tozaligini tasdiqlaydigan hujjat bo‘lib, buning natijasida mahsulotga bo‘lgan ishonch ortadi. Sertifikatlangan korxonalar uchun soliq va bojxona imtiyozlarining berilishi ishlab chiqarish va boshqaruv xarajatlarini kamaytirish hamda raqobatbardoshlikni oshirishga yordam beradi.

Ekologik sertifikatsiya uchun litsenziya olish va ekologik ekspertiza jarayonlarining soddalashtirilishi natijasida korxonaning vaqtini va mablag‘larini tejash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ekologik marketing va sug‘urta badallarini pasaytirish orqali toza mahsulotlarga bo‘lgan talab shakllanadi va bunday mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi korxonalar boshqa korxonalariga nisbatan ustunlikka erishadilar.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Korxonalar iqtisodiyotida ekologik boshqaruv tizimini joriy etishning o‘ziga xos xususiyatlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

1. Integratsiyalashuv jarayoni. Ekologik boshqaruv tizimi korxonaning iqtisodiy faoliyati bilan uzviy bog‘langan holda joriy etiladi. Shu bilan birga, atrof-muhitni muhofaza qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqarish jarayonlariga integratsiyalash talab etiladi.

2. Huquqiy talablar va standartlarni takomillashtirish hamda ularga rioya qilish. Korxonada faoliyati milliy va xalqaro ekologik standartlar (*ISO 14001, EMAS va boshqalar*) talablariga mos kelishi kerak. Davlat tomonidan belgilangan ekologik me‘yorlarga amal qilish muhim ahamiyatga ega.

3. Ekologik xarajatlar va samaradorlik. Ekologik boshqaruv tizimi joriy etilganda, chiqindilarni kamaytirish, resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish va energiya samaradorligini oshirish orqali xarajatlar kamaytirilishi lozim. Bu esa uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlikka erishishga olib keladi.

4. Texnologik innovatsiyalar. Korxonalarda ekologik toza texnologiyalarni joriy etish, qayta ishlash jarayonlarini rivojlantirish va chiqindilarni minimallashtirish orqali atrof-muhitga ta‘sirni kamaytirish imkonini beradi.

5. Korxonada xodimlarining ekologik madaniyatini oshirish. Xodimlar ekologik mas‘uliyatni his qilishi va ekologik boshqaruv tizimiga mos ravishda harakat qilishi uchun maxsus o‘quv dasturlari tashkil etilishi lozim.

6. Raqobatbardoshlikni oshirish. Ekologik boshqaruv tizimiga ega korxonalar bozorda raqobatbardoshlikka erishadi, chunki mijozlar va hamkorlar ekologik mas‘uliyatga ega bizneslarni afzal ko‘rishadi.

7. Jamoatchilik va manfaatdor tomonlar bilan hamkorlikni keng yo‘lga qo‘yish. Korxonada ekologik faoliyati haqida jamoatchilikka ochiq ma‘lumot berishi va manfaatdor tomonlar bilan yaqin aloqada faoliyat olib borishi talab etiladi.

8. Doimiy monitoring va tahliliy o‘rganish. Ekologik boshqaruv tizimi samaradorligini baholash uchun muntazam monitoring va tahlil amalga oshirilishi lozim. Bu, o‘z navbatida, tizimni takomillashtirishga yordam beradi.

Ekologik boshqaruv tizimini samarali joriy etish korxonaning barqaror rivojlanishiga, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga va atrof-muhitni muhofaza qilishga xizmat qiladi. Umuman olganda, bu o‘zgarishlar korxonaning ekologik jihatdan mas‘ul bo‘lishini ta‘minlab, uning iqtisodiy samaradorligini oshirishga hamda jamiyat manfaatlari uchun foyda keltirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Porter, M. E. (1991). *America’s Green Strategy*. Scientific American.
2. Hawken, P., Lovins, A., Lovins, L. H. (1999). *Natural Capitalism: Creating the Next Industrial Revolution*. Little, Brown and Company.
3. Stern, N. (2007). *The Economics of Climate Change: The Stern Review*. Cambridge University Press.
4. Schumpeter, J. A. (1934). *The Theory of Economic Development*. Harvard University Press.

5. Ostrom, E. (1990). *Governing the Commons: The Evolution of Institutions for Collective Action*. Cambridge University Press.

6. Sachs, J. D. (2015). *The Age of Sustainable Development*. Columbia University Press.

7. Самойлова Н. А. Экологический менеджмент: учеб. пособие. – Кемерово: КемТИПП, 2014. – 184 с.

8. Гладун, И. В. Экологический и энергетический менеджмент: учебное пособие / И. В. Гладун, А. А. Черенцова. – Хабаровск: ТОГУ, 2018. – 196 с. – ISBN 978-5-7389-2486-6.

9. Международные принципы стандартизации: Электронный ресурс / Т. Ю. Шкарина, И. Б. Репина, А. А. Набокова [и др.]. Том Часть 2. – Владивосток: Дальневосточный федеральный университет, 2018. – 76 с. – ISBN 978-5-7444-4201-9. – EDN VWKKMD.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhah:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, fevral, 2-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**